

VATANGA BO'LGAN MUHABBAT**Abduvahobova Kumushbegim Umidjon qizi***Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi 7- "B" sinf o'quvchisi*

Yigirma birinchi asr texnika asri. Texnologiyalar rivojlangan asri. Olimlar yangi kashfiyotlarni amalga oshirish uchun dunyoning turli taraflariga sayohat qilishmoqda. Sayohat davomida turli xil kashfiyotlar, g'aroyib o'simliklarga duch kelishibdi. Ular uchratgan o'simliklar ichida ularning diqqatini bir gul tortibdi. Bu gul juda chiroyli ediki, uni ko'rgan insonlar unga mahliyo bo'lib qolishardi. Bu gul olimlarga juda yoqib qolibdi. Uni o'z yurtlariga olib ketishmoqchi bo'lishibdi. Kelishuv asosida bu g'aroyib gulni olimlar o'zlari bilan olib ketishibdi.

Olimlar gulni o'z yurtlariga olib ketishibdi. Uni ko'rgan odamlar unga mahliyo bo'lib qolishibdi. Gul uchun kerakli barcha sharoitlar yaratilibdi. Gul bunday sharoitda yanada chiroyli bo'lib ketibdi, barq urib gullabdi.

Kunlar, oylar, yillar o'tibdi. Bir kuni olimlarga noyob gul ekilgan botanika bog'idan noxush xabar kelibdi. Bir kechada gullar birdaniga qurib qolgan emish. Hamma hayron edi. Olimlar bir zunda bog'ga to'planishibdi. Bu noyob gulni tuprog'igacha tekshirib ko'rishibdi. Uning bunday qurib qolishiga hech qanday sabab topa olishmabdi. Bu xabarni telefon orqali gul keltirilgan mamlakatga yetkazdilar va lol qolibdilar. O'sha paytda gullarning asli Vatanida qurg'oqchilik bo'lib, butun o'simliklar dunyosi, shu jumladan noyob gullarning avlodlari ham qurib qolgan ekan. Shunda olimlardan biri:

-Ajabo... Nahotki, nozikkina, nafisgina gulda ham Vatan hissi, Vatan mehri mavjud bo'lsa- debdi.